

XAVOTIRLANISH FENOMENINING GENDER XUSUSIYATLARI VA OILAVIY TARBIYA BILAN BOG‘LIQLIGI

Turdiyeva Muhayyo Soxibjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi
Xidirova Surayyo Rashid qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim va maxsus pedagogika” fakulteti
“Logopediya” yo‘nalishi 1-bosqich 102-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411453>

Annotatsiya: Mazkur tezisdá xavotirlanish fenomenining gender xususiyatlari hamda uning shakllanishida oilaviy tarbiyaning roli ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, xavotirlanish darajasi ayollar va erkaklarda turlicha namoyon bo‘lib, bu jarayonga biologik omillar bir qatorda oilaviy tarbiya uslublari ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatilishi haqida batafsil ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Xavotirlanish, gender xususiyatlar, oilaviy tarbiya, psixologik rivojlanish, biologik omillar, bilish jarayonlari, xarakter xususiyatlari.

Аннотация: В данной диссертации на основе научных источников анализируются гендерные особенности феномена тревожности и роль семейного воспитания в его формировании. По результатам исследования, уровень тревожности проявляется по-разному у женщин и мужчин, и приводится подробная информация о том, что на этот процесс существенно влияют как биологические факторы, так и стили семейного воспитания.

Ключевые слова: Тревожность, гендерные характеристики, семейное воспитание, психологическое развитие, биологические факторы, когнитивные процессы, черты характера.

Abstract: This thesis analyzes the gender characteristics of the phenomenon of anxiety and the role of family upbringing in its formation based on scientific sources. According to the results of the research, the level of anxiety manifests itself differently in women and men, and detailed information is provided on the fact that this process is significantly influenced by biological factors as well as family upbringing styles.

Keywords: Anxiety, gender characteristics, family upbringing, psychological development, biological factors, cognitive processes, character traits.

Kirish. Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning emotsional holatlari, xususan xavotirlanish fenomeni keng o‘rganilayotgan muhim muammolardan biridir. Xavotirlanish bu insonning ichki beqarorlik, xavotir va noaniqlik hissi bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional holati bo‘lib, u shaxsning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va xulq-atvoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Psixologiya fanida xavotirlanish ko‘pincha qo‘rquv bilan chalkashtiriladi, ammo ular o‘z mohiyatiga ko‘ra farqlanadi: qo‘rquv aniq xavfga nisbatan yuzaga keladigan reaksiya bo‘lsa, xavotirlanish ko‘proq noaniq va ichki hissiy beqarorlik bilan tavsiflanadi[1].

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning emotsional holatlari, xususan xavotirlanish fenomeni keng o‘rganilayotgan muhim muammolardan biridir. Xavotirlanish bu insonning ichki beqarorlik, xavotir va noaniqlik hissi bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional holati bo‘lib, u shaxsning

psixologik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Psixologiya fanida xavotirlanish ko’pincha qo’rquv bilan chalkashtiriladi, ammo ular o’z mohiyatiga ko’ra farqlanadi: qo’rquv aniq xavfga nisbatan yuzaga keladigan reaksiya bo’lsa, xavotirlanish ko’proq noaniq va ichki hissiy beqarorlik bilan tavsiflanadi[2].

Shuningdek, xavotirlanishning shakllanishida oila muhitining roli ham juda katta hisoblanadi. Oiladagi psixologik iqlim, ota-onaning tarbiya uslubi, bolaga nisbatan munosabat hamda emotsional qo’llab-quvvatlash darajasi shaxsning xavotir darajasiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, oilada salbiy emotsional muhit, stress yoki barqarorlikning yetishmasligi bolalarda xavotirli buzilishlarning paydo bo’lish xavfini oshiradi. Shu sababli, xavotirlanish fenomenini gender xususiyatlari hamda oilaviy tarbiya omillari bilan bog’liq holda o’rganish nafaqat psixologiya, balki pedagogika va ijtimoiy fanlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu masalani ilmiy jihatdan tahlil qilish yoshlarning ruhiy salomatligini saqlash, ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilash hamda samarali tarbiya tizimini yaratishda muhim ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi[3].

Asosiy qism: Xavotirlanish shaxs psixikasida muhim o’rin tutuvchi emotsional holat bo’lib, u insonning noma’lum xavf yoki salbiy natijani kutish jarayonida paydo bo’ladigan ruhiy kechinmalar majmuasini ifodalaydi. Psixologiyada xavotirlanish shaxsning ichki zo’riqishi, tashvish, qo’rquv va noaniqlik hissi bilan bog’liq psixologik holat sifatida talqin etiladi. Xavotirlanish insonning faoliyati, xulq-atvori hamda ijtimoiy munosabatlari sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Psixolog E. G’oziyevning ta’kidlashicha, xavotirlanish insonning ichki ruhiy holatini ifodalovchi murakkab psixologik jarayon bo’lib, u shaxsning emotsional barqarorligi, temperament xususiyatlari va tashqi muhit ta’siri bilan chambarchas bog’liqdir. Tadqiqotchining fikricha, xavotirlanish darajasi yuqori bo’lgan shaxslarda psixologik zo’riqish kuchli bo’lib, bu holat ularning faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin[4].

Shuningdek, psixolog V. Karimova ham xavotirlanish shaxsning ruhiy rivojlanishida muhim rol o’ynashini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko’ra, xavotirlanishning ma’lum darajasi insonni faoliyatga undashi mumkin, biroq uning ortiqcha darajasi shaxsda ishonchsizlik, tortinchoqlik va psixologik beqarorlikni keltirib chiqaradi. Xavotirlanish fenomenining gender xususiyatlari: Psixologik tadqiqotlarda xavotirlanish darajasining erkak va ayollar o’rtasida farq qilishi aniqlangan. Gender xususiyatlari shaxsning emotsional reaksiyalari va psixologik barqarorligiga ma’lum darajada ta’sir ko’rsatadi. V. Karimovanning fikriga ko’ra esa ayollarda emotsional sezgirlik yuqori bo’lishi sababli ular xavotirlanish holatlari erkaklarga nisbatan ko’proq kuzatiladi. Bunga biologik omillar, ijtimoiy muhit va tarbiya jarayonidagi farqlar sabab bo’lishi mumkin[5].

Psixolog M. Davletshin ham shaxs psixologiyasini o’rganish jarayonida erkak va ayollar o’rtasida emotsional reaksiyalar darajasida muayyan farqlar mavjudligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayollar ko’proq emotsional ta’sirchan bo’lib, bu ular xavotirlanishning kuchliroq namoyon bo’lishiga olib kelishi mumkin[6].

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda erkaklar ko’pincha xavotirni yashirishga harakat qilishi, ayollar esa uni ochiqroq ifodalashi aniqlangan. Bu esa statistik ma’lumotlarda ayollarda xavotirlanish darajasi yuqori ko’rinishiga sabab bo’lishi mumkin. Xavotirlanishning shakllanishida oilaviy tarbiyaning o’rni: Xavotirlanish darajasining shakllanishida oilaviy muhit muhim ahamiyatga ega. Oila shaxsning ilk ijtimoiylashuv muhitidir va bola shaxsning psixologik rivojlanishida muhim rol o’ynaydi. Oiladagi tarbiya uslubi, ota-ona va bola o’rtasidagi munosabatlar hamda oilaviy muhit shaxsning emotsional holatiga bevosita ta’sir qiladi. Psixolog F. Haydarovning ta’kidlashicha, oilada haddan tashqari qattiqqo’llik yoki aksincha, ortiqcha erkinlik mavjud bo’lsa, bu bolalarda xavotirlanish darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ota-

onaning doimiy tanqidi yoki bolaga ishonchsizlik bilan munosabatda bo’lishi unda qo’rquv va xavotir hissini shakllantiradi. Shuningdek, oilada sog’lom psixologik muhitning mavjudligi bolalarda emotsional barqarorlikni ta’minlaydi. Iliq va qo’llab-quvvatlovchi oilaviy muhitda ulg’aygan Aksincha, nizoli oilalarda o’sgan bolalarda psixologik zo’riqish va xavotirlanish ko’proq kuzatiladi. Oilaviy tarbiya jarayonida gender stereotiplari ham muhim rol o’ynaydi. Ba’zi oilalarda qiz bolalarga nisbatan ortiqcha nazorat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’linadi. Bu esa ularda mustaqillikning pasayishi va xavotirlanish darajasining ortishiga sabab bo’lishi mumkin[7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda xavotirlanish fenomeni inson psixikasida muhim o’rin tutuvchi emotsional holatlardan biri hisoblanadi. U shaxsning ichki ruhiy kechinmalari, tashqi muhit ta’siri hamda ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog’liqdir. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, xavotirlanish insonning faoliyati, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatadi. Ma’lum darajadagi xavotirlanish shaxsni faoliyatga undashi mumkin bo’lsa-da, uning yuqori darajasi psixologik zo’riqish, ishonchsizlik va emotsional beqarorlikni yuzaga keltirishi mumkin. Tadqiqot natijalari xavotirlanish fenomenida gender xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi. Ayollar erkaklarga nisbatan emotsional sezgirligi yuqoriroq bo’lgani sababli ularda xavotirlanish holatlari ko’proq uchrashi mumkin. Biroq bu farqlar nafaqat biologik omillar, balki ijtimoiy muhit va tarbiya jarayonidagi o’ziga xos xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Shunindan oilaviy tarbiya shaxsda xavotirlanish darajasining shakllanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Oiladagi psixologik muhit, ota-ona va bola o’rtasidagi munosabatlar hamda qo’llaniladigan tarbiya uslublari bolaning emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Iliq va qo’llab-quvvatlovchi oilaviy muhitda ulg’aygan bolalarda psixologik barqarorlik yuqori bo’lib, xavotirlanish darajasi nisbatan past bo’ladi. Aksincha, haddan tashqari qattiq nazorat yoki nizoli oilaviy muhit bolalarda xavotirlanishning ortishiga sabab bo’lishi mumkin. Shu sababli shaxsda sog’lom psixologik muhitni shakllantirish, oilaviy tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil etish hamda gender xususiyatlarini hisobga olish xavotirlanish darajasini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish holatlarini o’rganish metodikasi. – Pedagogika va psixologiya ilmiy to’plami, 2024. – B. 30–35
2. Sholpan A., Janabaeva R. Talabalarda xarakter aksentuatsiyasi va gender xususiyatlari. – Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 2024. – B. 45–50.
3. Abdug’aniyeva D. Oila mikroiklimining tashvish sharoitida shaxsning hissiy holatiga ta’siri. – Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila ilmiy jurnali, 2024. – B. 1–5.
4. G’oziyev E. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O’qituvchi, 2002. – 214–219-betlar.
5. Karimova V. *Psixologiya*. – Toshkent: Sharq, 2006. – 167–182-betlar.
6. Davletshin M. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2005. – 143-bet.
7. Haydarov F. *Oila psixologiyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 98-bet.